

[Print](#) [1] | [PDF](#) [2]

### [Britaniyada bir martalik plastik mahsulotlar taqiqlanadi](#) [3]



[4]

Buyuk Britaniya plastik trubkalar va plastikdan boshqa bir martalik mahsulotlarni taqiqlashni rejalashtirmoqda. Bu haqda mamlakat bosh vaziri Tereza Mey bayonot\_ [5]berdi.

Taqiq haqidagi qaror Britaniya Hamdo'stligi davlatlari hukumat rahbarlari uchrashuvida e`lon qilinadi. Ta`kidlanishicha, Britaniya uchrashuvda plastik muammosini hal qiladigan yangi texnologiyalar rivojiga taxminan 86 mln AQSH dollari ajratishi haqida ma`lum qiladi.

«Buyuk Britaniya hukumati bu masalada jahon yetakchisi sanaladi hamda Britaniya jamoatchiligi plastik paketlardan foydalanganlik uchun yig'implarni qabul qilish va plastik granulalarni taqiqlashda faollik ko'rsatdi. Bugun biz plastik chiqindilarni yanada qisqartirish bo'yicha katta rejalarimizni ilgari surmoqdamiz», - deyiladi Meyning bayonotida.

Shu bilan birga, mamlakat Atrof-muhitni muhofaza qilish vazirligi ma`lumotlariga ko'ra, Buyuk Britaniyada har yili taxminan 8,5 mlrd plastik trubkalar chiqindiga tashlanadi.

2018-04-19

**Source URL:** <http://uznature.uz/uz/node/3303>

#### Links

[1] <http://uznature.uz/print/3303>

[2] <http://uznature.uz/printpdf/3303>

[3] <http://uznature.uz/uz/node/3303>

[4] <http://uznature.uz/sites/default/files/styles/news/public/field/image/%D0%B1%D1%83%D1%82%D0%B8%D0%BB.jpg?itok=thsBXR8>

[5] <https://www.theguardian.com/environment/2018/apr/18/single-use-plastics-could-be-banned-in-england-next-year>